



## OLIY TA'LIM MUASSASASI PROFESSOR-O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JIHATDAN O'RGANISH

Xushvaqtov Yusuf Qurbanmurod o'g'li

Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Ilmiy rahbar: Avezov Olmos Ravshanovich

**Annotatsiya:** Maqolada oliy ta'lismuassasasi professor-o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini ijtimoiy-psixologik jihatdan o'rganish to'g'risida so'z boradi. Bundan tashqari oliy ta'lismuassasalarida professor-o'qituvchilarini kasbiy saralash, ularning kompetentligini ta'minlash, intellektuallik darajasi diagnostika tizimini shakllantirish muammosi o'rganiladi.

**Kalit so'zlar:** professor, o'qituvchi, oliy ta'lismuassasasi, kasbiy saralash, yaroqlilik, intellekt, emosional intellekt, sosial intellekt, diagnostika, tizim, kompetensiya.

**Аннотация:** В статье речь идет о социально-психологическом исследовании профессиональной компетентности профессоров высшего учебного заведения. Кроме того, изучается проблема профессионального отбора профессоров и преподавателей в вузы, обеспечения их компетентности, формирования системы диагностики интеллектуального уровня.

**Ключевые слова:** профессор, преподаватель, высшее образование, учреждение, профессиональный отбор, подготовленность, интеллект, эмоциональный интеллеккт, социальный интеллеккт, диагностика, система, компетентность.

**Abstract:** The article deals with the socio-psychological study of the professional competence of the professors of the higher educational institution. In addition, the problem of professional selection of professors and teachers in higher education institutions, ensuring their competence, forming a diagnostic system of intellectual level is studied.

**Key words:** professor, teacher, higher education, institution, professional selection, fitness, intelligence, emotional intelligence, social intelligence, diagnosis, system, competence.

### KIRISH

Jahonda uzlucksiz ta'liming tizimli tashkil etilishi va boshqarilishi, muntazam va barqaror takomillashtirib borilishi, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda ustuvor vazifa sanaladi. Ta'lismarayonini muntazam takomillashtirib borish jarayonida esa ta'lismarayonining uzlucksizligini ta'minlash o'ta muhimdir. Shu jumladan, Respublikamizda joriy etilgan uzlucksiz ta'lismarayonining asosiy bo'g'ini hisoblangan oliy ta'lismuassasalarida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilarining bilim, ko'nikma va malakalarini doimiy oshirib borish bugunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.



Hozirda OTM professor-o'qituvchilarini ishga qabul qilish hamda ularning tanlovlarda ishtirokini psixologik baholash tizimini yo'lga qo'yish nazarda tutilgan. OTM professor-o'qituvchilarini ishga qabul qilish hamda ularning tanlovlarda ishtirokini psixologik baholash tizimini yo'lga qo'yish orqali esa tanlovda obyektivlik masalasi hal etilishiga erishiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida har yili turli xil maqsadlarda professor-o'qituvchilarning kasbiy faoliyati yuzasidan nomzodlarni saralash bo'yicha tadbirlar amalga oshiriladi. Bugungi kunda ushbu tadbirlar asosan OTM huzurida tuzilgan "Jamoatchilik kengashi" tomonidan amalga oshirilmoqda.

Ma'lumki, jamoatchilik kengashi bir necha nafar a'zodan iborat komissiya tarkibida faoliyat olib boradi. Ayrim hollarda ushbu komissiyaning faoliyatini tashkil etish va uning baholash tizimi bilan bog'liq holatlarda nomzodlarni yetarlicha to'laqonli baholash uchun zarur mezonlar cheklanganlik xarakteriga ega bo'ladi. Aksariyat hollarda asosan nomzodlar to'g'risidagi hujjatlar bilan cheklanishga to'g'ri keladi. Demakki holatning vaqt jihatdan, iqtisodiy jihatdan hamda nomzodning ushbu faoliyatga mosligi va yaroqliligin ta'minlovchi xolis baholash xususiyatiga ega bo'lgan tizimni ishga tushirish zaruriyati mavjud. Bu esa "Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga psixologik yaroqliligi diagnostikasi tizimini shakllantirish" kompyuter dasturiy ta'minotiga ehtiyoj borligidan dalolat bermoqda.

Jahon psixologiyasida koimpyuter psixodiagnostikasi masalasi XX asrning 40-yillaridan boshlangan muammo hisoblanadi. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanayotganligi esa barcha faoliyat sohalarida inqilobiy o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Psixologik diagnostika ilmiy tadqiqotning nazariy sohasi va psixologlar amaliy faoliyati yo'nalishi sanaladi. Bu holat esa axborot texnologiyalarining psixologik diagnostika sohasiga jadal kirib kelayotganligi holatga fanlararo yondashuvni taqozo etadi. Amalga oshirilayotgan diagnostika tadbirlarini tizimli, operativ, tejamkor va xolis baholashga ehtiyoj mavjudligini tasdiqlamoqda. Axborot texnologiyalaridan psixologik diagnostika maqsadlarida foydalanish jahon tajribasida 1970-1980 yillarda keng avj olgan bo'lsada, ammo 1980 yillarning oxiri va 1990-yillarning boshlarida ushbu diagnostika yondashuvi doirasidagi materiallarni mukammallashtirishga zarurat borligi kuzatildi. Oqibatda mutaxassis-larning sa'y-harakatlari tufayli kompyuter psixodiagnostikasi sohasida ijobiylar o'zgarishlar kirib kela boshladi. 1990 yillarning o'rtalarida global internet tizimida ishlaydigan ilk bora masofaviy test tizimi yo'lga qo'yildi.

Biz uchun ko'proq tajriba vazifasini o'tayotgan yondash ilmiy ma'lumotlar bazasi rus psixologiya maktabi vakillari tomonidan erishilgan ilmiy yutuqlar bilan uzviy bog'liqdir. Bu holatning psixologik diagnostika maqsadlarida axborot texnologiyalarining joriy etilishini qator klassik metodikalar misolida kuzatish mumkin bo'ladi. Ammo ushbu taqdim etilayotgan kompyuterda dasturlashtirilgan diagnostika vositalarining asosiy qismi individual metodikalarning tadbiqi bilan bog'liq.

## ASOSIY QISM



Oliy ta'lif muassasalarida professor-o'qituvchilarni kasbiy kompetentligining psixologik diagnostikasi tizimini shakllantirish" mavzuidagi innovation mavzu doirasida shakllantiriladigan psixologik diagnostika tizimi yordamida professor-o'qituvchilarning kasbiy faoliyatga psixologik yaroqlilik darajasi baholanadi. Jumladan:

- professor-o'qituvchilarning kasbiy faoliyatga psixologik yaroqlilik darajasi aniqlanadi;
- professor-o'qituvchilarning regulativ, kommunikativ va kognitiv kompetentsiyalari aniqlanadi;
- umumiy intellektuallik, sotsial va emotsiyal intellektuallik darajalari aniqlanadi;
- kasbiy muhitga moslashuvchanlik imkoniyatlari o'rganiladi;
- shaxslilik xususiyatlari aniqlanadi;
- asab-psixik barqarorlik va frustratsiyali vaziyatlarga bag'rikenglilik darajasi aniqlanadi;
- psixologik diagnostika tizimi kompyuter dasturlashtirilgan shaklda amalga oshiriladi va ma'lumotlar bazasi shakllantiriladi.

Maqolaning ilmiy yangiligi sifatida quyidagi holatlarni keltirib o'tish joiz:

- professor-o'qituvchilarning kasbiy- psixologik qiyofasini baholash mezonlari ishlab chiqiladi;
- professor-o'qituvchilarni kasbiy-psixologik saralashning ekspert baholash, "smol- ekspert" tizimi shakllantiriladi;
- professor-o'qituvchilarning sosial-psixologik yo'nalganlik, kasbiy kompetentlik, pedagogik kompetentlik, psixologik kompetentlik, sosial-kommunikativ kompetentlik darajalari va "professor-o'qituvchining psixologik portreti" diagnostik daturlash tizimi tayyorlanadi;
- oliy ta'lif muassasalariga ishga qabul qilinayotgan professor-o'qituvchilarni kasbiy saralash psixologik diagnostikasining "professor-o'qituvchi-xodim" kompyuter dasturi ishlab chiqiladi.

Dasturiy ishlanmani shakllantirishda pedagog, psixolog va axborot-kommunikasiya sohasi mutaxassislaridan iborat ilmiy jamoa faoliyat olib boradi.

Ilmiy jamoaning ilmiy-ijodiy ishlanmasi yakuniy shakli tanlovda ishtirok etadigan nomzodlarning xolis, ishonchli, haqqoniy va yaroqli ekanligini tasdiqlovchi ko'rsatkichlarni taqdim etishi bilan belgilanadi. Mazkur masalani yechish natijasida quyidagi vazifalar hal etiladi:

- nomzodlarni saralash uchun zarur bo'lgan tanlov mezonlari ishlab chiqiladi;
- tanlov mezonlarida professor-o'qituvchilarning kasbiy faoliyati va shaxslilik fazilatlarini aks ettiruvchi bandlari qamrab olinishi ko'zda tutiladi;
- nomzodlarni baholash mezonlariga muvofiq psixologik diagnostika metodikalari saralanadi;



- psixodiagnostika metodikalari professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi va shaxslilik fazilatlarini baholash imkoniyatiga egaligi inobatga olinadi;

- tanlangan metodikalarning baholash xususiyatlari, nomzod to'g'risidagi ma'lumotlarning ishonchlilik, haqqoniylilik, xolislik va yaroqlilik darajasini ta'minlash uchun psixometrika talablari bo'yicha sinovdan o'tkaziladi;

- dasturiy ta'minotda professor- o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini aks ettiruvchi quyidagi mezonlar e'tiborga olinadi: kommunikativ kompetentlik; autopsixologik kompetentlik; sosial-pedagogik kompetentlik; kognitiv kompetentlik.

#### Kommunikativ kompetensiya:

- muloqot muhitini shakllantira olish, ta'lim oluvchilar bilan hamkorlik qilish; ta'lim oluvchilarga nisbatan ishonch tuyg'usini o'rnatish; har bir ta'lim oluvchini individual qabul qila olish; muloqotda tashabbus ko'rsata olish; o'zining muloqotda individual uslubiga ega bo'lish;

- zarur axborotlarni mazmunan ajratib olish; zarur axborotlar bilan ijodiy ishslash; fikrlarni bayon etishda shaxsiy tuyg'u va munosabatlarini aks ettirish; materiallarni mantiqiy, qulay, obrazli, ifodali bayon etish; asosiy ma'lumotlarni ajratish, ta'lim oluvchilarga materiallarni muammoli tarzda taqdim etib, ularni babs-munozaraga jalg etish;

- o'zini va atrofdagilarni tushuna olish qobiliyati, o'zini va o'zgalarni qabul qila olishi, o'zini va o'zgalarni hurmat qilishi; tashkilotchilik, mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi; faoliyatning o'zini-o'zi kasbiy rivojlantirishga va shaxsiy kamolotiga yo'nalganligi.

#### Tashkilotchilik kompetensiyasi:

- o'zini o'zi tashkillashtirish;
- o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish;
- ta'lim oluvchilarning hayot faoliyatini tashkil etish;
- o'zining va ta'lim oluvchilar mehnatini tashkil etish;
- atrofdagilarning faoliyati bilan o'z faoliyatini muvofiqlashtirish.

#### Sosial-pedagogik kompetensiya:

- ta'lim oluvchilarning turli guruhi xususiyatidan kelib chiqib, sotsial-pedagog ishni tashkil etish uchun zarur pedagog faoliyati mazmuni, shakli va metodlarini ta'minlash;

- ta'lim oluvchi shaxsiga, uning qiziqishlari va ehtiyojlariga ta'sir ko'rsatuvchi tibbiy, pedagogik va psixologik shart-sharoitlarni o'rganishga qobiliyatlilik;

- sosiumdagi sosial-pedagogik faoliyatni tashkil etish qobiliyati;

- ta'lim oluvchilarning har-xil ijtimoiy va shaxsiy muammolarini hal etish mahorati;

- huquqbazarliklarning oldini olishga intiluvchanlik;
- ta'lim oluvchilar o'rtasida o'zining shaxsiy mavqeい va obru-e'tiboriga egalik.

#### Kognitiv kompetentlik:



- o'zining ma'lumotlilik darajasini muttasil oshirib borishga tayyorlik;
- shaxsiy imkoniyatlarini faollashtirish va ularni safarbar etish ehtiyoji;
- yangi bilim, ko'nikma va malakalarni doimiy ravishda o'zlashtirishga qobiliyatlilik, o'zini kamol toptirishga intilish;
- kasbiy kompetensiyalarini doimo boyitib borish qobiliyati.

Pedagogik texnikani qo'llash mahorati:

- ta'lif oluvchilar bilan bog'liq vaziyatlarni tahlil qilish va ularning foydasiga qarorlar qabul qilish;
- ta'lif oluvchilarga zarur talablarni qo'ya olish va ularni amalga oshirishlari uchun shart-sharoitlarni ta'minlash;
- ta'lif oluvchilarning xatti-harakatlarini ijobjiy namoyon etishlarini rag'batlantira olish;
- ta'lif oluvchilar bilan do'stona munosabat o'rnatish qobiliyati.

Kasbiy faoliyatdagi psixik barqarorlik va muhitga moslashuvchanlik darajasi:

- moslashuvchanlik qobiliyatları;
- asab-psixik barqarorlik;
- kommunikativ xususiyatlar;
- axloqiy me'yorlarga mosligi.

### XULOSA

Yuqorida bildirilgan fikrlardan xulosa qilish mumkinki, mazkur mezonlar oliy ta'lif muassasalarida professor-o'qituvchilarni kasbiy kompetentligini ijtimoiy-psixologik jihatdan o'rganish uchun asosiy shartlar hisoblanadi va ularga muvofiq metodikalar tanlanadi va amaliyotga taqdim qilinadi. Bu esa albatta o'z navbatida uzlusiz ta'lif tizimining asosiy bo'g'ini bo'lgan oliy ta'lif muassasalarida professor-o'qituvchilarni kasbiy kompetensiyalarini baholash imkonini beradi. Oliy ta'lif muassasasida faoliyat olib borayotgan, yoki ishga joylashayotgan nomzodning kasbiy kompetensiyalari xolis baholanishi esa o'z navbatida ta'lif jarayonining talab darajasida tashkil etilishiga xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ismontas BB Pedagogik psixologiya. Yordamchi eslatmalar. - M.: Moskva ochiq ijtimoiy universiteti, 2001. - [elektron resurs]. - Kirish rejimi: [http://ido.rudn.ru/psychology/pedagogical\\_psychology/12.html](http://ido.rudn.ru/psychology/pedagogical_psychology/12.html).
2. Rasulov A. "O'qituvchi shaxsini psixodiagnostik test yordamida o'rganish", Pedagogik mahorat i/n jurnali, 2021 yil aprel, 3-8 betlar.
3. "Oliy ta'lif muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". Vazirlar Mahkamasining qarori.
4. Vdovina S.A. Professionalno pedagogicheskaya kompetentnost i yee struktura. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Perm – 2009.



5. Slastenin V., Isaev I., i drg. Pedagogika. Uchebnaya posobiya.
6. Yelegina V.S., Poxlebaev S.M. Kompetentnosnyy podxod k organizatsii obucheniya studentov v pedagogicheskim vuze. Fundamentalnoe issledovanie. 2012 № 3.